



UDK:36.012.85

Guli QODIROVA,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: gulimarselovna@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d G.Jo'rayeva taqrizi ostida

TEACHING OF JADID POETRY IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation

Jadid literature is one of the phenomena that brought a profound transformation to Uzbek cultural and social life, serving as a means to modernize society and elevate national consciousness and culture. Emerging in the late 19th and early 20th centuries, this movement found vivid expression not only in journalism and drama but also in poetry. The key characteristics of Jadid poetry include patriotism, enlightenment, progressive ideas, and a focus on awakening the people. This article comprehensively analyzes the importance of Jadid literature, the distinctive features of Jadid poetry, and the issues related to its teaching in general education schools.

Key words: Jadid literature, enlightenment, global education, pedagogical technologies, critical thinking.

ПРЕПОДАВАНИЕ ПОЭЗИИ ДЖАДИДОВ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

Джадидская литература стала одним из явлений, ознаменовавших коренной поворотный момент в узбекской культурной и общественной жизни, послужив модернизации общества и возвышению национального самосознания и культуры. Это течение, возникшее в конце XIX — начале XX века, нашло яркое выражение не только в публицистике и драматургии, но и в поэзии. Главными особенностями джадидской поэзии являются ее проникнутость патриотическими, просвещенными и прогрессивными идеями и ее направленность на пробуждение народа. В статье дается всесторонний анализ значимости джадидской литературы, уникальных аспектов джадидской поэзии и проблем ее преподавания в средних школах.

Ключевые слова: Современная литература, просвещение, глобальное образование, педагогические технологии, критическое мышление.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JADID SHE'RIYATINING O'QITILISHI

Annotatsiya

Jadid adabiyoti o'zbek madaniy va ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan hodisalardan biri bo'lib, u jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy ong va madaniyatni yuksaltirish yo'lida xizmat qildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan bu harakat nafaqat publitsistika va dramaturgiya, balki she'riyatda ham o'zining yorqin ifodasini topdi. Jadid she'riyatining asosiy xususiyatlari – vatanparvarlik, ma'rifatchilik, taraqqiyparvar g'oyalar bilan sug'orilganligi va xalqni uyg'otishga qaratilganligidir. Ushbu maqolada jadid adabiyotining ahamiyati, jadid she'riyatining o'ziga xos jihatlari hamda uni umumta'lim maktablarida o'rgatish masalalari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadid adabiyoti, ma'rifatparvarlik, global ta'lim, pedagogik texnologiyalar, tanqidiy tafakkur.

Kirish. Jadid adabiyoti o'zbek adabiyoti tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu adabiyotning eng muhim jihatlaridan biri ma'rifatchilik va milliy ongni yuksaltirish edi. Jadid adabiyoti xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, eski qarashlardan voz kechishga undadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadidlar o'z asarlarida bilim va tarbiyaning xalq kelajagidagi o'rni haqida fikr yuritdilar. Shu bilan birga, jadid adabiyoti ijtimoiy islohotlarni targ'ib qildi. U ijtimoiy adolat va islohotlarga da'vat qilib, xalqni o'z haq-huquqini anglashga chorladi. Masalan, Behbudiy "Padarkush" dramasi eski va yangi dunyo to'qnashuvini yoritib, xalqni yangicha fikrlashga undaydi.

Jadidlar faqat ma'rifatparvarlik bilan cheklanib qolmay, adabiyotning estetik jihatlarini ham boyitdilar. Ular nasr, dramaturgiya va she'riyatda yangicha shakl va uslublarni olib kirdilar[1]. An'anaviy adabiyotdan farqli ravishda, jadid adabiyoti inson huquqlari, erkinlik va

mustaqillik kabi g'oyalarga urg'u berdi. Bu esa o'zbek milliy adabiyotining rivojlanishida ulkan o'rin tutdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadid she'riyati o'zining mazmun va shakl jihatidan an'anaviy mumtoz she'riyatdan farq qilishi bilan ajralib turadi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri vatanparvarlik va milliy ruhdir. Jadid shoirlari o'z she'rlarida vatan sevgisi va millat g'amxo'rligini ifoda etdilar. Masalan, Abdurauf Fitratning "Mirrix yulduziga" she'rida xalqning og'ir ahvoli tasvirlanib, uni uyg'onishga chaqirish motivi mavjud. Bunday she'rlar xalqni o'zligiga qaytishga, mustaqillik va taraqqiyot sari intilishga undagan. Jadid shoirlari poetik shakl va uslub jihatidan ham yangilanishlar olib kirdi. Ular an'anaviy aruz vaznidan tashqari, barmoq tizimidan ham foydalanib, xalq tiliga yaqin she'rlar yaratdilar. Bu esa ularning she'riyatini keng ommaga yetkazish imkonini berdi. She'rlarda soddalik, ravon til va ta'sirchan obrazlar ustuvor bo'ldi.

Jadid she'riyatining yana bir muhim jihati – sotsial muammolarni yoritishidir. Unda jamiyatdagi qoloqlik, bid'at va johillik tanqid qilinib, xalqni yangicha fikrlashga undovchi g'oyalar ilgari surildi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning she'rlari xalqni ilm-ma'rifatga intilishga, zamonaviy hayotga moslashishga undaydi. Abdulla Avloniy, Fitrat singari jadid shoirlari o'z asarlarida ilmning hayotdagi o'rni haqida she'rlar yozib, yoshlarni o'qishga chorlaganlar. Avloniyni "Axloq kitobi" to'plamiga kirgan she'rlarida ilm va halollikning inson hayotidagi ahamiyati yuksak baholanadi.

Jadid she'riyatini umumta'lim maktablarida o'rgatish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lsa-da, bu jarayonda qator muammolar mavjud. Jadid adabiyoti darsliklarda cheklangan hajmda yoritilgan. O'quvchilar jadidlarning asosiy asarlari bilan tanishsalar ham, ularning falsafasi va ma'naviy merosi chuqur o'rganilmaydi.

Bundan tashqari, o'qitish usullarining eskirganligi ham muammo sanaladi. Ko'pincha dars jarayonida an'anaviy metodlardan foydalaniladi. O'quvchilar she'rlarni yodlash bilan cheklanib, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilishmaydi. Buning yechimi sifatida interfaol metodlarni qo'llash zarur. Jadid she'riyatini o'qitishda muammoli ta'lim, rolli o'yinlar va bahs-munozaralar kabi usullar samarali natija berishi mumkin. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham jadid adabiyotini o'rganishni qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Jadid adabiyoti bo'yicha video darslar, audiokitoblar, interaktiv darsliklar yaratish o'quvchilarni yanada qiziqtirishi mumkin.

Jadidchilik harakati o'zbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkurining muhim bosqichlaridan biri sifatida XX asr boshlarida shakllandi. Bu harakatning asosiy maqsadi milliy uyg'onish, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalarini ilgari surish bo'lib, adabiyot ushbu tamoyillarni keng targ'ib etishning muhim vositasi bo'ldi[6]. Xususan, jadid shoirlari o'z ijodi orqali xalqni ilmlashishga, zamonaviy tafakkurni shakllantirishga va milliy o'zlikni anglashga undadilar. Biroq, bugungi kunda maktab darsliklarida jadid she'riyati asosan Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniy ijodi misolida yoritilib, harakatning butun ko'lamini aks ettirish imkoniyati cheklangan. Jadid she'riyati o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U, avvalo, ma'rifiy xarakterga ega bo'lib, xalqni ilmga, taraqqiyotga chorlovchi didaktik ruhdagi asarlar bilan boyitilgan. Shuningdek, milliy uyg'onish, istiqloq va ijtimoiy adolat g'oyalari jadid shoirlari she'rlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Ular adabiy shakl va poetik uslub nuqtai nazaridan ham yangilanishga intilib, an'anaviy uslublarni modern she'riyat tamoyillari bilan uyg'unlashtirdilar[4]. Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniy ijodi ushbu xususiyatlarni o'zida mujassam etgani sababli, ularning asarlari darsliklarga kiritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ijtimoiy tanqid, ma'rifatparvarlik va xalqni uyg'otish motivlari yetakchilik qiladi. Uning "Xalq" she'ri xalqning ijtimoiy qoloqligiga achinish va uni ilmga chorlovchi kuchli chaqiriq sifatida baholanadi. Hamzaning she'rlari poetik jihatdan ham an'anaviy shakl va qafiyalarga asoslangan bo'lib, didaktik ohang ustuvorlik qiladi. Shuningdek, u ayollarning jamiyatdagi o'rni haqida she'rlari bilan ham tanilgan bo'lib, bu orqali gender tenglik masalasini ham ko'tarib chiqqan. Abdulla Avloniy esa, avvalo, dramaturgiya va publitsistika yo'nalishida mashhur bo'lsa-da, uning she'rlari ham jadidchilik ruhiyatini aks

ettiradi. U ilmiy taraqqiyot, axloqiy poklanish va insoniy kamolot g'oyalarini ilgari surgan. Xususan, "Vatan" she'rida milliy uyg'onish va istiqloq g'oyalari yetakchilik qiladi[3].

Hamza va Avloniy ijodi jadid she'riyatining asosiy yo'nalishlarini ochib berishga xizmat qilsa-da, harakatning butun murakkabligi va xilma-xilligini to'liq aks ettirish uchun yetarli emas. Chunki jadid adabiyotida Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi shoir va mutafakkirlar ham katta hissa qo'shgan. Masalan, Fitratning "Sayha" she'ri Turkiston taqdirini yoritishda muhim asar bo'lib, milliy uyg'onish va istiqloq g'oyalarini aks ettirgan[2]. Munavvarqori esa pedagogik va badiiy she'rlari orqali ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilgan. Behbudiy esa o'zining dramatik va falsafiy she'rlari bilan jadidchilik tamoyillarini chuqurlashtirgan.

Jadid she'riyatini faqat Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniy ijodi asosida o'rganish, albatta, ushbu adabiy oqimning ayrim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Biroq, bu yondashuv jadid harakatining to'liq manzarasini yaratish uchun yetarli emas. Shu bois, maktab darsliklarini Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori kabi boshqa jadid shoirlarining asarlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir[5]. Bu esa yosh avlodga jadidchilikning haqqoniy adabiy manzarasini taqdim etish, milliy uyg'onish ruhini to'laonli anglash imkonini yaratadi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi milliy ruhni tarbiyalash, vatanparvarlik, insoniylik va ma'naviyatni oshirishda katta ahamiyatga ega. Uning "Jonlarning jononi Vatan" she'ri ham aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu she'rda Vatanni sevish, uning himoyasiga turish, vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish g'oyasi aks etgan. Niyoziyning ushbu she'rini umumta'lim maktablarida o'qitish o'quvchilarda vatanparvarlik, ma'naviy qadriyatlar va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. She'ming nomidan ham ma'lumki, unda Vatanni sevish, unga sodiq bo'lish va uning himoyasini o'z jonidan qadrli deb bilish g'oyasi ilgari suriladi. Niyoziyning bu she'ri o'quvchilarga milliy g'urur, vatanparvarlik va farzandlik burchini o'rgatadi. Unda Vatan sevgisi, milliy g'urur va iftixor, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar singari muhim g'oyalar ilgari surilgan. She'rda Vatanni sevish, unga xizmat qilish va uni himoya qilishning muhimligi ta'kidlanadi, bu esa yosh avlodga vatanparvarlikni, xalqiga bo'lgan hurmatni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, she'rda insonning ma'naviy va axloqiy mas'uliyatlarini anglash, Vatan uchun jon fido qilish kabi muhim qadriyatlar o'rgatiladi. H.Niyoziyning "Jonlarning jononi Vatan" she'rini o'qitish umumta'lim maktablarida bir nechta pedagogik maqsadlarni ko'zlaydi. Birinchi navbatda, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. She'rni o'qish va uning mazmunini tushunish orqali o'quvchilar Vatan uchun xizmat qilishni, uni himoya qilishni o'z burchlari deb bilishlari kerak. Bu yosh avlodni millatiga sadoqatli, o'z tarixini, madaniyatini qadrlovchi, ayni paytda zamonaviy talablarga javob bera oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Ikkinchi jihat, she'r orqali axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashdir. Niyoziyning she'ridagi har bir qator o'quvchilarga insoniylik, mardlik, fidoyilik kabi fazilatlarini o'rgatadi. She'rda Vatan uchun jon fido etish, uning himoyasini o'z jonidan qadrlash kabi g'oyalar o'quvchilarda yuqori axloqiy qadriyatlarni rivojlantiradi.

Shuningdek, she'rda ko'rsatilgan Vatan sevgisi orqali o'quvchilarda milliy g'urur, xalqining sha'ni va tarixiga bo'lgan hurmat shakllanadi.

Uchinchi jihat, she'rni o'qitishda adabiy tahlilning o'rni katta. She'rning badiiy jihatlari, tili, obrazlari va uslubiy xususiyatlari o'quvchilarni adabiy tafakkurga, estetik didni rivojlantirishga undaydi. Bunda she'rni tahlil qilish, uning mazmunini yoritish, tasviriy vositalarni tushuntirish orqali o'quvchilar nafaqat adabiy bilimlarni egallaydi, balki til va madaniyatga bo'lgan hurmatini oshiradi.

She'rni o'qitish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun bir qator metodikalar qo'llanilishi mumkin. Masalan, she'rni tahlil qilish metodikasi orqali har bir qatorni, uning ma'nosini, tasviriy vositalarini tushuntirish zarur[7]. Bu o'quvchilarning fikrlashini, adabiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, muammoli metod yordamida she'rning mazmuni va uning hayotiy ahamiyatini tushuntirish mumkin. O'quvchilarga savollar berish, masalan, "Nega Vatan uchun kurashish zarur?" yoki "Nima uchun Vatanni sevish insonning eng oliy burchi hisoblanadi?" kabi savollar orqali ularni mulohazali fikrlashga undash mumkin. Interfaol metodlar, masalan, rolli o'yinlar, guruh muhokamalari va ijodiy ishlarni o'quvchilarni yanada faolroq jalb etadi va ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Jonlarning jononi Vatan" she'ri umumta'lim maktablarida o'qitilishi o'quvchilarda vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar va badiiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bu she'rni o'qish va uning mazmuni orqali o'quvchilar Vatanga, xalqiga bo'lgan muhabbatini oshiradi, shuningdek, adabiy tafakkurlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ularning ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan to'liq shakllanishiga yordam beradi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Jonlarning jononi Vatan" she'ri nafaqat adabiy qadriyatlarni o'rgatadi, balki yosh avlodni milliy g'urur,

vatanparvarlik va axloqiy mas'uliyatga targ'ib qiladi. Uning umumta'lim maktablarida o'qitilishi o'quvchilarga o'z xalqiga sodiq, ma'naviy jihatdan boy va axloqan to'g'ri yo'ldan yuruvchi shaxslar sifatida shakllanish imkonini yaratadi. Jadid she'riyatining pedagogik asoslarini tahlil qilish, uning umumta'lim maktablarida o'qitilishini nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy jihatlarni ham ko'zda tutadigan metodologik yondoshuvlarni yaratishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Jadid she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari — milliy anglashuvni kuchaytirish, ijtimoiy va madaniy islohotlarga urg'u berish, yangi hayotga bo'lgan umid va intilishlar — yosh avlodni mustahkamlash, yangi tafakkur va yuksak ma'naviy qadriyatlarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. She'riy tahlil, didaktik metodlar, muammoli yondoshuvlar va interfaol metodlar yordamida o'quvchilarni jadid she'riyatining ma'naviy, estetik va falsafiy xususiyatlari bilan tanishtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, o'z-o'zini anglash va o'zgaruvchan jamiyatda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Jadid she'riyatini o'qitish jarayonida pedagogik asoslar zamonaviy talablarga mos ravishda ishlab chiqilishi, o'quvchilarga har bir she'riy asar orqali nafaqat o'zbek adabiyotining tarixiy va madaniy kontekstini, balki adabiy badiiyat va tafakkur tizimini anglashni ham o'rgatish lozim. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali metodologik vositalar, interaktiv texnologiyalar va adabiy tahlil metodlarini qo'llash o'quvchilarni nafaqat she'r, balki hayotning haqiqiy qarashlari bilan tanishtiradi va ularda mustahkam ilmiy asoslar, milliy g'urur hamda ijodiy tafakkur shakllantiradi. Xullas, jadid she'riyatini umumta'lim maktablarida o'qitish nafaqat adabiyot o'qituvchilari uchun, balki butun ta'lim tizimi uchun muhim pedagogik vazifa bo'lib, u o'quvchilarni intellektual, estetik va axloqiy jihatdan to'liq shakllanishiga yordam beradi, ularning milliy ongini shakllantirishda zarur vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Adib Xalid. Politics of muslim cultural reform. Jaddizm in Sentral Asia. – USA: California University press, 1998. – P. 36.
2. Hamidulla Boltaboyev. "Sayha" qismatidan lavhalar yoki shoir Fitrat haqida. "Sharq yulduzi", 1991, 6-son.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B.8.
4. Komatsu X. 1911—1928 yillarda Buxoro ziyolilari o'rtasida milliy farqlanishning tadriji. – Tokio, 1989. – B.63.
5. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
6. Баходир К. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.203-221.
7. Матжон С. Мактабда адабиётдаги мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.19.